

MAKTABGACHA TA'LIMDAN BOLALARNI CHET TILIGA TAYYORLASH

To'rayeva O'g'iloy Jo'raqul qizi

SamDChTI 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Pardayeva Aziza Rahmatullayevna

Torayevaogiloy1309@gmail.com

Tel. raqami :+998970334464

Annotatsiya: Hozirda til bilish orqali inson ko'plab davlatlar bilan fikr almashib yuqori daraja va martabalarga erishmoqda. Til bilish el bilishni osonlashtiradi. Ota-bobolarimiz ham bejizga til o'rganishimizni ta'kidlashmaydi. Shuning uchun ham yosh avlodni o'smirlik paytidan til bilishga undashimiz kerak. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda yosh avlodga samarali ta'lim metodlaridan foydalangan holda chet tillarini o'rgatish haqida so'z yuritilgan. Ularga chet tillarini osonlik bilan o'rgatishning bir nechta usullari tushuntirib ,yoritib berilgan

Kalit so'zlar: harflarni oson yodlatish, qisqa multifilm, to'g'ri talaffuz qilish, ashula aytish, bolalar sevib o'ynaydigan narsa.

O'zbekistonda mustaqillik sharofati bilan ta'lim tizimining barcha bosqichlarida keng ko'lamli o'zgarishlar, yangilanishlar jarayoni boshlandi. Uzlüksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida bosqichma bosqich islohotlar amalga oshirildi. Shu jumladan ta'lim tizimining eng quyi bo'g'ini maktabgacha ta'lim tizimida ham qator o'zgarishlar yuz berdi. Masalan, ilgari bolalar maktabga chiqishlaridan oldin matematika ,ona tili ,fanlaridan quyi bilimni egallab borishgan. Davlatimiz rivojlangani sari ular endi qator chet tillarni ham o'zlashtirib borishayapti. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim tizimini ham chetda qoldirgani yo'q. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda ijtimoiy va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilidan boshqa qoraqalpoq rus tojik qirg'iz qozoq va turkman tillarida olib boriladi. Bolalarni chet tiliga qiziqtirish uchun professional tarbiyachilar yo'llanmoqda.

Ularni chet tillariga yanada qiziqtirish uchun bir nechta usullarni qo'llash zarur. Turlicha qiziqarli o'yinlar tashkil etish bolalarni chet tiliga qiziqtirish uchun juda yaxshi usuldir. Masalan, chet tili harflarini qiziqtirib orgatishning ham usuli bor. Bu usul harflarni oson yodlatish usuli bo'lib, u quyidagicha: tarbiyachi bolalarga bittadan harfni vazifa qilib beradi va biror so'z aytadi. Bolalar esa harflariga qarab bir birlarini topishadi. Bu o'yinning keyingi bosqichida bir birlari bilan topishib olib so'zni yasagan

jamoadagi har bir a'zo yasalgan so'zdagi harflarni yaxshilab o'rganib chiqishlari kerak. Tarbiyachi esa a'zodagi har bir bolaga o'ziga berilgan harfdan bo'lak shu so'zdagi istalgan harfni so'raydi. Bola esa aytib, yozib ko'rsatib berishi kerak. Tarbiyachi ham shu tarzda boshqa harflar qatnashgan so'zlarni ham aytadi, shunda hech bir bola o'yinda ishtirok etmasdan qolmaydi. Ushbu o'yin bolalarni shunchaki harflarni bir tekisda o'rganib, o'qib, yozishdan ko'ra ko'proq chet el harflarini o'rganishga qiziqtiradi. Bolalarni qiziqtirishning yana bir usuli. Tarbiyachi ustoz bolalarga o'rgatilayotgan tilda qisqa multifilm qoyib bersa bolalarga xos bo'ladi va ular tilga nisbatan qiziqishi ortadi. Bundan keyin tarbiyachi ustoz multifilmida ishtirok etgan bir nechta lug'atlar bolalarga bir kun davomida vazifa qilib berishi kerak va bu lug'atlarni bolalar to'liq yodlab bo'lganlaridan so'ng multifilmni qayta ko'radilar va ilgari ko'rganlarida nimani va keyin ko'rganda nimani tushunganlarini birma bir so'rab chiqish kerak. Bolalar chet tilini o'rganayotganlarini his qiladilar, o'zlariga nisbatan ishonchlari, fanga nisbatan esa qiziqishlari ortadi. Bu ham juda foydali usuldir. Foydali deb topilgan yana bir usullardan biri bolalar o'rgangan bilimlariga tayanib tuzgan gaplarini ularga to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishdir. Ular o'zlarini chet tilida gapiryotgandek his qiladilar va shu tilda erkin gapirishga intilishadi. Keyingi darslarda ular boshqacha gaplar tuzib talaffuz qildirishingizni so'rashadi. Bu tarbiyachida ham ishtiyoq paydo qiladi. Bu usulga o'xshash yana bir usul mavjud. U ashula aytirishdir. Hozirda ommalashayotgan har bir ashulaning minus versiyasi ham bor. Bolalarga ashulani to'liq eshittirish kerak. Iloji bo'lsa ularga ashulaning so'zlari yozilgan bo'lsa zerikib qolishmaydi. Qo'shiq toliq o'rganib chiqilgandan so'ng bolalarga minus versiyada aytishni vazifa qilib berib keyingi darsda har birlariga aytirib chiqish ham juda foydali usul. Yana bir samarali metodlardan biri bu ularning o'zlari yoqtirgan va sevib o'ynaydigan narsalaridan foydalangan holda o'rgatishdir. Chet tillarini o'rgatish davomida har bir bolani harakati uchun rag'batlantirib borish talab etiladi.

Muhokama

Umumiy qilib aytganda, aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davrlaridan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni anchor tezroq qabul qilish imkoniyatiga egadir. Ushbu o'ziga xoslikni inobatga olgan holda

Darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, pedagog tarbiyachilar maktabgacha ta'limda o'qiyotgan bolalarga chet tillarini o'rgatishning bir nechta qiziqarli usullaridan foydalanishlari zarur.

Foydalanilgan ma'lumotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabr "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori

3.[https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha/ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni -o-qtishning zamo.](https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha/ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qtishning-zamo)